

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10782973>

## HOZIRGI KUNDA MAKTAB O'QUVCHILARINI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHNING AHAMIYATI

**B.Qorjovov**

Terdu Psixologiya yo'nalishi 2-kurs magistranti

### ANNOTATSIYA

*Kasbga yo'nalitirish – bu ilmiy asoslangan va o'zini kasbini jamiyat ehtiyojlari sifatida, o'qituvchilar jamoasi bilan psixologlar oldida turli yoshdagi, jinsdagi maktab oquvchilarini kasbga qiziqitirish, mehnat qobiliyatlarini rivojlantirish, ichki imkoniyatlarini ishga solish (o'zini-o'zi namoyon etish) kabi muhim vazifa turadi.*

**Kalit so'zlar:** kasb, yo'nalish, psixologik maslahat, yoshdagi, maktab o'quvchilari, kasbga qiziqitirish, mehnat, qobiliyat.

### АННОТАЦИЯ

*Профессиональная ориентация научно обоснована и самопрофессиональна. Поскольку потребности общества, педагогов и психологов разные заинтересовать школьников разного возраста и пола профессией, работой развитие способностей, использование внутренних возможностей (самовыражение) – важная задача.*

**Ключевые слова:** профессия, направление, психологическое консультирование, возраст школьников, пол, интерес к профессии, труду, способность.

### ANNOTATION

*Vocational orientation is science-based and self-vocational as the needs of the society, teachers and psychologists are different to interest schoolchildren of age and gender in profession, work development of abilities, use of internal capabilities (self-expression) is an important task.*

**Key words:** profession, direction, psychological counseling, schoolchildren of age, gender, interest in profession, work ability.

Kasbga yo'naltirish — bu ilmiy asoslangan va o'zini kasbini jamiyat ehtiyojlari sifatida, shuningdek, o'zini qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olib, turg'un kasb tanlash uchun katta hayotga kirayotgan yoshlarga yordam beradigan psixologik-pedagogik tizimdir. Yoshlarning kasb tanlashi asosan, o'rta maktabdan boshlanadi, shunga ko'ra, o'qituvchilar jamoasi bilan psixologlar oldida turli yoshdagi, jinsdagi maktab oquvchilarini kasbga qiziqtirish, mehnat qobiliyatlarini rivojlantirish, ichki imkoniyatlarini ishga solish (o'zini-o'zi namoyon etish) kabi muhim vazifa turadi.

Bundan tashqari, psixologlar o'quvchilarning aql-idroki, qobiliyatlarini hamda muayyan kasbga yaroqlilik darajasini aniqlash metodlari, usullari, texnologiyasi, shakllari, mezonlari va tarkibiy qismlarini ishlab chiqishlari, shuningdek, bu sohada ilmiy-tadqiqot ishlari hamda muxum chora-tadbirlar olib borishlari zarur.

O'smirlar va ilk o'spirinlarning kasb tanlashi katta hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan ham shaxsiy, ham ijtimoiy muammo bo'lganligidan bu jarayonda ota-onalar, jamoatchilik va turli kasb vakillari ham faol qatnashishlari kerak, chunki yoshlar ko'p hollarda kattalarning maslahatlari va tavsiyalarini hisobga olgan holda yoki bevosita kasbiy faoliyatlarni kuzatish jarayonlari orqali qat'iy bir fikrga, qarorga kelishlari mumkin.

Shuni ham aytib o'tish o'rinliki, maktab o'quvchilari kasb tanlash borasidagi o'z qarorlarini, ko'pincha, har tomonlama dalillab bera olmaydilar, biroq ularning ko'pchiligi bu masalaga ongli ravishda yondashishga intiladilar. Oquvchilarni kasbga yo'naltirishni yosh bosqichlarida o'quvchilarda quyidagi mazmunga ega bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirishdan asosiy maqsad ularni kasbiy bilimini oshirish va kasb faoliyatiga qiziqishni shakllantirish Bunga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim ya'ni:

1. O'z-o'zini baholay bilish malakalariga o'rgatish.
2. Intellektual va hissiy-irodaviy xislatlarini rivojlantirish.
3. Realistik jihatdan o'z-o'zini baholashni rivojlantirish.

O'rta yoshdagi o'quvchilarni kasbga yo'naltirish  
5-7 sinf (o'rta yoshdagi) o'quvchilarini kasbga yo'naltirish mazmuni, ulardagi qiziqish,

layoqat, shaxs sifatida jamiyatda tutgan o‘rni to‘g‘risidagi tushunchalar va kasb tanlash ko‘nikmasini shakllantirish zarurati bilan belgilanadi. Bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatlar bu yoshdagi o‘quvchilar uchun hayotdagi o‘z o‘rnini belgilash va tayyorlashda turtki, o‘z shakllanish imkoniyatlarini ochishi va kasb tanlashi uchun zarur bo‘ladi. Bu yoshdagi o‘quvchilarda ijtimoiy- psixologik layoqatlar, o‘zi ulg‘ayotganligida, yangi bir pozitsiyada, o‘ziga e‘tiborida, atrofga va olamga munosabatida shakllanishi kerak 8-9 sinf o‘quvchilarida kasbga yo‘naltirish. 8-9 sinf o‘quvchilarida kasbga yo‘naltirish ishlari mazmuni shaxsning ma‘naviy xislatlari va jamiyat oldidagi burchi, javobgarlik xissini shakllantirish bilan ajralib turadi. Bu esa ulardan mustaqillik, tashabbus bilan chiqish, mustaqil qaror qabul qilish xatti-harakatlari natijasini bilishi va faoliyatini nimaga olib kelishini sezishi bilan belgilanadi.

Jamiyatda ta‘lim tizimini rivojlantirishning strategik yo‘nalishi bu insonning turli sohalarida maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intellekt va axloqiy rivojlanishidir. Jahonning rivojlangan davlatlari qatori mamlakatimizda ham ta‘limdagi islohotlar jarayonida mustaqil ta‘limni rag‘batlantirish muhim yo‘nalish sifatida kelmoqda. Pedagogning kasbiy layoqatligini tarbiyalash fenomenini tadqiq qilish bir qator olimlarning ishlarida o‘z ifodasini topgan. Bu mualliflar kasbiy layoqatlilik — ishonchlilik sifatleri bilan birgalikda o‘qituvchining kasbiy-individual hodisa sifatida pedagogik madaniyatini tavsiflaydi degan fikrni olg‘a surganlar. O‘z navbatida, kasbiy layoqatlilik tushunchasi, V.A.Slastenin ta‘kidlaganidek, pedagogning pedagogik faoliyatini amalga oshirishga nazariy hamda amaliy tayyorligining birligini ifodalaydi va uning kasbiy shakllanganligini tavsiflaydi. Jamiyatdagi bu o‘zgartirishlar bevosita kelajak avlodning barkamol shaxs bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi. Ta‘lim muassasalarida ta‘lim olayotgan o‘quvchi yoshlarni umumiy o‘rta ta‘limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, ko‘nikma va malakalar asosida shakllantirish, ta‘lim oluvchilarga bilim, ko‘nikma va malakalarning zaruriy hajmini berish, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. E.G‘oziyev, K.Mamedov. *Kasb psixologiyasi*. —T.: O‘zMU, 2003.
2. R.Xudayberdiyev „Maktab o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish “ „Surxon-nashr”-2023
3. M. Zemapo, M. Semago. *Bolaning aqliy rivojlanishini baholash nazariyasi va amaliyoti. Maktabgacha va boshlang‘ich maktab yoshi*. — Sankt-Peterburg: Nutq, 2010.
4. L.S. Vygotskiy. *Inson taraqqiyoti psixologiyasi*. — M.: Eksmo nashriyoti, 2005.
5. F. N Gonobolin. “*Psixologiya*.”
6. “*Ma‘rifat*” nashriyoti. — M., 1973-y.